

NURMATOVA SHAXNOZA
SHAVKATBEKOVNA

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYA
MATNI USTIDA ISHLASHDA
O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH
USULLARI



Nurmatova Shaxnozaxon Shavkatbek qizi

Nurmatova Shaxnozaxon Shavkatbek qizi 1996-yil Farg'ona viloyati, Farg'ona shahrida tug'ilgan. 2015-2021 yillarda Andijon davlat universiteti bakalavr va magistratura bosqichlarida tahlili olgan. Hozirda Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini o'qituvchisi.

Shaxnoza Nurmatovaning pedagogika yo'nalishida 1 ta o'quv qo'llanma va 15 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan.

Bugungi kunda maktab o'quvchilari nutqidagi muammolar, ularni baholash, innovatsion o'qitish va xorij tajribasi tahlili mavzularida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



ISBN 978-9910-6498-7-5



9 789910 649875

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

NURMATOVA SHAXNOZAXON SHAVKATBEK QIZI

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HIKOYA MATNI USTIDA
ISHLASHDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH USULLARI

Monografiya

Toshkent - 2024

UO'K:

KBK:

Nurmatova Sh.Sh. / Boshlang‘ich sinflarda hikoya matni ustida ishlashda o‘quvchilar nutqini o‘stirish usullari / monografiya.
– Toshkent: “Zebo Prints”, 2024. –80 bet

Monografiyada boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari orqali o‘quvchilarda o‘qish malakasi to‘g‘ri, me’yorida, anglab va ifodali o‘qishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish maktab ta’limida yetakchi o‘quv fanlaridan hisoblanagan ona tili o‘quv faniga bevosita va bilvosita daxldordir. Ona tili mashg‘ulotlari tilning butun go‘zalligi, sehrini o‘rganishga qiziqish uyg‘otishi, hech qanday dastur bilan belgilab berib bo‘lmaydigan qonuniyatlari bilan tanishtirishi va o‘quvchilar nutqini yanada ravon qilishga xizmat qiladi.

Monografiya boshlang‘ich ta’lim bakalavriat yo‘nalishi talabalari, magistrantlari, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Z.A.Umarova - ChDPU, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi”

v.b.dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

F.U.Jumanova – Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, professor

Mazkur monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 16 dekabrdagidagi 7-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9912-649-87-3

© Nurmatova Sh.Sh., 2024

©“Zebo Prints”, 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI	6
1.1. Nutqiy kompetentlikni rivojlantirish – o‘qish darslarining bosh maqsadi	6
1.2-§ Nutq – fikr bayon qilishning asosiy vositasi.....	9
1.3-§ O‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirish.....	15
II BOB. BOSHLANG'ICH SINFDA MATN USTIDA ISHLASH	19
2.1-§ Badiiy asar matni ustida ishlash	19
2.2. O‘qish savodxonligi darsida badiiy matnni tahlil qilish usuli orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish.....	23
2.3. Hikoya ustida ishlash metodikasi.....	26
III BOB. HIKOYA MATNI USTIDA ISHLASH USULLARI	30
3.1. Hikoya matnini ongli o‘qish usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish	30
3.2. Hikoya matnini mustaqil faoliyat va suhbat usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish.....	36
3.3. Hikoya matnini izohli o‘qish usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish	48
3.4. Hikoya matnini qayta hikoya qilish usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish.....	54
3.5. Hikoya matnini kichik guruhlarda ishlash usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish.....	62
UMUMIY XULOSALAR	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	76

KIRISH

Ta’limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo‘llarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ona tilini o‘qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o‘quvchilar faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor. O‘quvchilar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari o‘z fikrini ifodalashga, zarur bo‘lgan so‘z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo‘llay bilishlari davr talabidir. Ona tilidan dars beruvchi o‘qituvchi haqiqiy ijodkor bo‘lishi, ta’lim jarayonida o‘quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantirishi, o‘z fikri, g‘oyalarini o‘zgalarga yetkaza bilish, ko‘nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Bu narsa boshlang‘ich sinflardanoq shakklantirilishi lozim.

O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish maktab ta’limida yetakchi o‘quv fanlaridan hisoblanagan ona tili o‘quv faniga bevosita va bilvosita daxldordir. Ona tili mashg‘ulotlari tilning butun go‘zalligi, sehrini o‘rganishga qiziqish uyg‘otishi, hech qanday dastur bilan belgilab berib bo‘lmaydigan qonuniyatlari bilan tanishtirishi zarurki, bu istiqbolli ta’limni yo‘lga qo‘yishdagi eng asosiy va eng muhim omil vazifasini o‘tashi lozim.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” kitobida berilgan hikoyalar ustida ishlash o‘quvchilarda til sezgirligini tarbiyalaydi, ona tilining boy ifoda vositalariga oshno qiladi. Hikoyalarni o‘rganish orqali yosh kitobxonni ona tilining sehrli olami bilan tanishtirish imokniyatiga ega bo‘lish mumkin. Ulardan o‘quvchilarga ma’naviy tarbiya berish vositasi sifatida foydalanish lozim. O‘quvchilarda ma’naviyatni shakllantirib borish, nafaqat u haqda tushuncha hosil qilish, balki ular xulq-odobining shakllanib borishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqda Prezidentimiz shunday yozadi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.¹

¹ Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
– Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. 14-bet.

I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

1.1. Nutqiy kompetentlikni rivojlantirish – o‘qish darslarining bosh maqsadi

Jamiyat taraqqiy etgani sari fan va ta’lim oldiga yangidan-yangi muammolarni qo‘yadi. Bu muammolarni yechish harakati bilan faqat ilmiy paradigmalargina emas, balki o‘qitish paradigmalari ham o‘zgarib boradi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv predmetining o‘zlashtirishlariga qaratilgan ta’lim paradigmaidan kompetensiyali ta’lim tizimiga o‘tish harakati kuchaydi. Shuning uchun ham jahon pedagogikasida kompetentli shaxs tarbiyasi, kompetentli o‘qitish muammolari ko‘tarilmoqda. Shu o‘rinda Kompetensiya nima? Kompetentli shaxs deganda nima tushuniladi? degan savollarning tug‘ilishi tabiiy.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kompetensiya – (lotincha competere – layoqatli, munosib bo‘lmoq) so‘zining ikki ma’noda qo‘llanilishi ko‘rsatiladi: 1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsnинг rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2. Shaxsnинг biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Mazmunan kompetensiya “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Kompetentli shaxs deganda, ma’lum sohada kelib chiqqan muammoni hal qilishni o‘z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo‘lgan, ma’lum vazifa qo‘yish va uni hal qilishda mustaqillik ko‘rsata oladigan shaxs tushuniladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Ta’lim jarayoniga “kompetentlik” tushunchasining kiritilishi shu kunga qadar o‘qitish amaliyotida uchraydigan nazariy bilim bilan undan amaliyotda foydalanish o‘rtasidagi uzilish, ya’ni o‘quvchi nazariy bilimga ega bo‘lgan holda, undan muammoli vaziyatlarda foydalanishga qiynalish holatlarini bartaraf qiladi. Demak, an’anaviy ta’limda ustuvor bo‘lgan “bilish paradigmasi” o‘rniga “bilimlardan muammoli vaziyatlarda o‘rinli foydalanish” paradigmasi ustuvor paradigmaga aylanmoqda.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, kompetensiyaviy yondashuv “bilish paradigmasini” inkor qilmagan holda, “uni muammoli vaziyatlarda qo‘llay bilish” paradigmasiga bo‘ysunadigan ikkinchi plandagi paradigmaga aylantiradi. Lekin ikkinchi paradigma birinchi paradigmasiz faoliyat ko‘rsata olmaydi. Demak, “bilish paradigmasi” bilan “qo‘llash paradigmasi” o‘zaro bog‘liq paradigmalardir.

Kompetensiyaviy ta’lim o‘quvchilarning ma’lum bilimlar yig‘indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o‘sirishni mo‘ljallaydi. Shunga muvofiq, ta’lim maqsadi, mazmuni ustuvorligi ham o‘zgaradi: bilim, malaka,

ko‘nikmalarни shakllantirishdan asosiy e’tibor egallangan bilim, malaka, ko‘nikmalarни hayotda amaliy masalalarни hal qilishda erkin qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Bugungi kunda o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat umumiy o‘rta, balki uzluksiz ta’limning barcha turlarida e’tibor qaratilishi muhim bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Zero, badiiy asar mohiyatini teran idrok etish uni tushunib, ongli o‘qishga har tomonlama bog‘liq bo‘lib, natijada o‘quvchilarda jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilish xususida atroficha fikr yuritish va xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

O‘qish san’ati, matn mazmuni, o‘zgalar nutqini eshitish va anglash malakasi, shaxsiy fikr-mulohalarini bayon etish mahorati bo‘yicha boshlang‘ich va yuqori sinflar adabiy ta’limida aniq talablar hamda muayyan tafovutlar mavjud.

Boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish jarayoni elementlar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanishi yaxshi ma’lum. Agar o‘qish texnikasi miqdoriy ko‘rsatkichi bir daqiqada 1-sinfda 25-30, 2-sinfda 40-50, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so‘zni tashkil etsa, yuqori sinflarda bu natija 200 tadan ortishi ko‘zda tutilgan.

O‘qish texnikasi sifat ko‘rsatkichi esa so‘zlar, iboralar, murakkab atamalar, mumtoz namunalarni aniq, ravon va xatosiz talaffuz qilish, ma’nosini tushungan holda ta’sirchan, obrazli o‘qish ko‘nikma va malakalarini talab etadi. Miqdoriy ko‘rsatkichdagi belgilar soni hamda matnni o‘qishga qo‘yiladigan zaruriy talablar sinflar kesimida

o‘quvchining yosh xususiyati va bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasiga mos holda orttirilib boriladi

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari orqali o‘quvchilarda o‘qish malakasi to‘g‘ri, me’yorida, anglab va ifodali o‘qishga o‘rgatish asosida rivojlantiriladi. O‘qish malakasi sifatlarining asosi esa ongli o‘qishdir. Ongli o‘qish o‘z navbatida ifodalilikka xizmat qiladi. Asar qurilishi va mazmunini tushunish ongli o‘qishning muhim shartidir.

1.2-§ Nutq – fikr bayon qilishning asosiy vositasi

Nutq faoliyati insonning kundalik turmushi va turli sohalardagi faoliyati davomida vujudga keladigan, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishni ta’minlovchi muhim jarayondir. Nutq faoliyatlarining bajarilishi ikkiga: og‘zaki nutqqa, yozma nutqqa bo‘linadi. Ma’lumot olish tinglab tushunish, o‘qish orqali amalga oshsa, ma’lumot berish, gapirish va yozma nutq orqali amalga oshadi.

Ushbu faoliyatning eng oddiy usullarini odam bolalik chog‘ida kattalar bilan muloqotga kirishish orqali egallaydi.

Nutq faoliyatini amalga oshirish qobiliyati bolaning aqliy jihatdan rivojlanish jarayonida takomillasha boradi. Bu qobiliyatning takomillashishi ikki yo‘nalishda amalga oshadi.

Birinchidan, nutq faoliyati kundalik turmush bilan bog‘liq muloqotlarni amalga oshirish vositasi sifatida mustahkamlanib boradi.

Ikkinchidan, bu faoliyat insonning turli sohalardagi faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan muloqot ehtiyojini qondiruvchi vosita sifatida shakllana boshlaydi. Nutq faoliyatining kundalik muloqotni

amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tabiiy sharoitda ham yetarli darajada rivojlanaveradi. Ammo, nutq faoliyati insonning turli sohalardagi faoliyatida, ayniqsa, aqliy mehnat jarayonida yuzaga keladigan muloqotni ta’minlay oladigan darajada yetkazish uchun maxsus ta’limni joriy qilish zarurati tug‘iladi. Mana shu ishni amalga oshirish o‘rta matabning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Madaniyat sirlari ham avvalo ona itli mashg‘ulotlarida – til hodisalarini o‘rgatish jarayonida singdiriladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr maxsulini nutq sharoitida mos ravishda og‘zaki shakllarda to‘g‘ri ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirlingini tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim. Bu ona tili o‘qitishning asosiy maqsadidir. Odam nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Do‘stlarning suhbatи ham, so‘zlayotgan kishining chaqirishi ham, san’atkorning sahnadagi monologi ham, o‘quvchining sinfdagi javobi ham nutqning bir ko‘rinishidir.

Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U ba’zan istaktilak, ba’zan chaqiriq-murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi.

Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ona tilini o‘qitish

jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga ham alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarga bayon qilinadigan fikrni o‘z aqliy faoliyat jarayonidan o‘tkazish, uni fikran bir joyga to‘plash ichki nutqning rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishlarga ega.

Og‘zaki nutq odamdagи tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. O‘quvchi og‘zaki nutqda ko‘proq sodda gaplarni qo‘llaydi u o‘z suhbatdoshiga nimanidir ko‘rsatish uchun mantiqiy urg‘udan foydalanib, ma’lum bir so‘zni alohida ta’kidlash, mimika, ko‘z, qo‘l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin.

Yozma nutq esa harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, turli ajratishlar: abzatslar, paragrflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq, tushunarli bayon etish orqali ro‘yobga chiqadi. Yozma nutq ham og‘zaki nutq singari monologik va dialogik shakllarda bo‘lishi mumkin.²

Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o‘qilganini qayta so‘zlab berish, o‘zi savol berib, o‘zi javob berish shaklida namoyon bo‘ladi.

Dialogik nutq esa ikki va undan ortiq kishi o‘rtasida amalga oshirildi. Ta’lim jarayonida ko‘pincha dialogning keng tarqalgan ko‘rinishi suhbatdan foydalaniladi. Bu odatda o‘qituvchi va o‘quvchi

² A.G‘ulomov, B.Qobilov. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995. 8-bet.

o‘rtasidagi muloqatdir. Nutqning bu ko‘rinishi tugallangan jumlalardan foydalanishi bilan ajralib turadi.

Nutqning ikkinchi turi yozma nutqdir. Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatdan to‘g‘ri jumla qurishni har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrini ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi.

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanishi orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta‘sirchan bo‘lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali tus oladi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa – aralashuvga ehtiyoj sezadi, o‘zgalarning fikrini bayon qlishga tobora ko‘proq zarurat sezaga boshlaydi.

Maktabda fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi nutqini rivojlantirish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi. Chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va u ona tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga yo‘l ochadi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko‘p tarkibli, serqirra bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa, buyum holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlariga bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi. Nutq

sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so‘zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (maktub, axborot, voqeanavislik va h.z.) vositasida fikr almashtira oladi. Tabiiyki, bu nutqning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so‘zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo‘li og‘zaki nutqdir. O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab mazmundorlikdir.

Shuni unutmaslik lozimki, nutq sharoitga mos tushsa, u mazmunli bo‘ladi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqeа-hodisalarni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon qilish mumkin. Aniq dalillar, kuzatish yoki taassurotlar, his-tuyg‘ular asosida yuritilgan fikrgina o‘zgalar diqqatini o‘ziga tortadi. Mazmunsiz fikr na o‘quvchining o‘ziga, na o‘zgalarga yoqadi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan yana biri fikrining mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta‘sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqeа-hodisaga sinchkovlik bilan qarash ularning har biriga to‘g‘ri baho bera bilish, shu yo‘l bilan muntazam va izchil qurish, isbotlay bilish bilimni talab etadi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning boy va rang-barang bo‘lishidir. Nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, shuningdek nutqning badiiy qiymatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning maqol va afarizmga aylanib qolgan iboralari hamda jumlalaridan, badiiy

asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, o‘zbek xalqning qochiriq so‘zлari va frazealogik iboralaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so‘roqli gaplardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik va joziba, rang-baranglik baxsh etadi.

Ohangdorlik ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o‘quvchi nutqining ta’sirchanligini oshirish vositalaridan biridir. Shuning uchun She’riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o‘qiy olishi malakasi ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri sanaladi. Nutqqa qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq avvalo tushunarli bo‘ladi. Nutqning tushunarli bo‘lishi, bir tomonidan, fikrni lo‘nda, aniq bayon qilish, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomonidan tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liqdir. Demak, o‘quvchi fikrini ham sodda, ravon bayon qilish, ham o‘zgalar fikrining mohiyatini anglab, uni tushunishi imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Birinchi sinflarning nutqini o‘sirishda ularga She’r, maqol, topishmoq, hikoya, ertaklarni o‘rgatish yaxshi samara beradi. O‘quvchi she’r yodlab, shu she’rni aytish davomida ham o‘z nutqini oshira boradi. Maqol aytib, topishmoqlar aytib nutqlarini oshiradilar. Maqollarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Hikoya va ertaklarni o‘qib berish bilan birga o‘quvchilarga ularni tushunganicha so‘zlatish kerak. Bu usul ularni nutqini oshirishda yaxshi samara beradi. Rasm asosida hikoyalar tuzdirish ham yaxshi natija beradi.

1.3-§ O‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirish

O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish, ularning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish orqali o‘qilayotgsn matnning mazmunini o‘zlashtirish imkonini yaratiladi.

Badiiy matnlarni tahlil qilish usuli orqali o‘quvchilarining nutqini o‘stirish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, so‘zlashuv tili nutq o‘stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So‘zlashuv tili esa o‘qilgan matnlarni og‘zaki hikoya qilishda namoyon bo‘ladi. So‘zlashuvga o‘rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o‘qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik-yoshdagi maktab o‘quvchilaridagi ma’naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili shu jumladan, o‘qish va nutq o‘stirish ta’lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir.

O‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiatini va o‘ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni qiroat bilan o‘qishning amaliy ahamiyatini o‘stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o‘qish metodlarini takomillashtirish yo’llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Til qonunining ta’limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o‘qishga o‘rgatishdagi usullarni to‘g‘ri qo‘llash (ko‘rgazmalilik, tarqatib beriladigan topshiriqli qog‘ozlar bilan ishslash yo’llarini bilish) usullari takomillashtiriladi.

Bolalarning o‘z fikr-taassurotlarini ifodalashlari uchun savol-javob nutqni egallashlariga ko‘proq o‘rin beriladi. His-tuyg‘uli nutq, fikrni ta’sirli ifoda etish, o‘qish paytidagi nutq, ertak aytib berishdagi ohang va nutq, hazil-mutoyibadagi nutq uyg‘unlashishi, o‘quvchilarga zavq-shavq bag‘ishlashi lozim.

Bolalarni faollikka o‘rgatish uchun ma’nodosh so‘zlarni topish o‘yinlarini tashkil etish, bunday so‘zlarni nutqda o‘rinli qo‘llashni gap tuzishda esa so‘zlar orasidagi bog‘lanishga mos turli o‘xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o‘tkaziladi. Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni gapda so‘zlarning tartibiga, ularning bir-biriga bog‘lanishiga, so‘zlar o‘rnini almashtirib, gapni qayta tuzib o‘qishda, izchillikka rioya qilish mashqlarini o‘tkazishga e’tibor beriladi.

Hikoya, ertaklar matnnini so‘zlab berishda qahramonlar ovoziga taqlid qila bilish; rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha, o‘yin, mehnat haqida hikoya qilish, misollar keltirish, matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish, badiiy matn ustida ishlashga o‘rgatish, matnni qismlarga bo‘lib, ular mazmuniga mos sarlavhalar topish, ijodiy rasmlar ishlash kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga o‘rganadilar.

Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og‘zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko‘proq yod olishga e’tibor berish mashqlarini o‘tkazish tavsiya etiladi. Bolalarga hamisha o‘z nutqiga e’tiborli bo‘lish, o‘rtoqlarining nutqiga odilona baho berishga o‘rgatiladi. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining yod olish qobiliyatlarini rivojlantirish borasida o‘tmishdagi maktablar tarjibasi

juda qo‘l keladi. Qadimda maktablarda bolalar o‘qiganlarini yod olish usullarini o‘zlashtirib olganliklari uchun ularning xotiralari yaxshi bo‘lganligi ma’lumdir. Shularni hisobga olib, o‘quv dasturida yodlash uchun 12-14 ta she‘r namunalari berildi. Ular ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. She’rni yoddan aytishda ifodalilikka, nutq odobiga rioya qilish, shoshilmay, yoqimli ovozda o‘qish talab etiladi.

O‘qituvchi o‘z nutqining bolalarga qanday ta‘sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsda e’tiborsiz o‘tirsalar, demak, o‘qituvchi nutqining ta’sir kuchi sust. U o‘z nutqini hamma bolalarga, goho ayrim bolalarning xulq-atvoriga qaratgan holda boshqarishi, qiziqarli misollar aytishi, o‘quvchilar e’tiborini tortib, o‘rinli imo-ishoralar ishlatishi, qo‘lni besabab harakatlantirmasligi, bir nuqtaga qarab emas, balki sinf jamoasining diqqatini tortgan holda gapirishi kerak.

O‘qish darslarida ko‘pincha obrazli nutq asosidagi suhbat, savol-javob kabi usullar-dan foydalaniladi. Tilimizning lug‘at boyligi tarkibida yorqin, ifodali nutqni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan hamma vositalar mavjud. So‘zlarni ko‘chma ma’noda ishlatish imkoniyati va buning natijasida so‘zlarning ko‘p ma’no kasb etishi lug‘atimizning yanada boyishiga imkon beradi.

Bola nutqining taraqqiyotini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajribalar dastlab so‘zlarning vujudga kelishi va shu asosda dastlabki umumiyl tushunchalarning paydo bo‘lib, shakllanishini ko‘rsatadi.

O‘qish darslarida xilma-xil usullarni qo‘llash bola uchun qiziqarlidir. Jumladan, ovozni saqlay bilish. O‘qituvchi bu ishga jiddiy e’tibor berishi, bunda o‘zi namuma bo‘lishi zarur. Ovoz pardalarini asrash

o‘quvchi sog‘lig‘i uchun nihoyatda zarur. Qo‘sinq, she‘r, tez aytish kabi o‘yin-mashg‘ulotlarda nutq a’zolarining gigiyenik qoidalariga amal qilishni odat tusiga kiritish lozim.

Bolalarning nutqini o‘sirishda ikki asosiy talabni hisobga olish lozim: og‘zaki nutqdagi izchillik, fikrlash, ifodalilik, pauza (to‘xtam), temp (sur’at). Yozma nutqda og‘zaki nutq asosida hosil bo‘lgan bilimmalaka va tushunchalarning uzviyligini ta’minlash. Davlat ta’lim standard talablariga ko‘ra o‘quvchilar erkin fikrlashga o‘rganishlari lozim. Fikrlash esa bolada darrov hosil bo‘lmaydigan jarayon bo‘lib, uni yuzaga chiqarish uchun rejali ish olib borish lozim.

Fikrni rejali ifodalash nutq o‘sirish ishlarida ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Reja tuzishni o‘quvchilar birinchi sinfdanoq mashq qilganlari uchun ma’lum ko‘nikmaga ega ekanliklarini hisobga olib, ikkinchi sinfda bu ishni tez-tez takrorlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur sinfda ham reja tuzish ishlariga o‘qituvchi rahbarlik qilishi va o‘quvchilarda mas’uliyatni sezish hissini yuzaga keltirishi kerak. Reja darak, so‘roq, ba’zan atov gap shaklida ham tuziladi. Reja asosida bayon qilingan matn tahlili o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladi

Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” kitobida berilgan matnlar o‘quvchilarining nutqining ravon bo‘lishiga, nutqdagi izchillik, fikrlash, ifodalilikning namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

II BOB. BOSHLANG‘ICH SINFDA MATN USTIDA ISHLASH

2.1-§ Badiiy asar matni ustida ishslash

Boshlang‘ich sinflarda to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifasi o‘quvchilarda asarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O‘qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishslashning o‘zaro bog‘liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishslashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g‘oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog‘liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishslash jarayonida ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishslashning asosiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishslashning quyidagi turlaridan foydalilanadi:

1. *Tanlab o‘qish.* Bunda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan

matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, 2-sinfda “Olxo‘ri va o‘rik” ertagida tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismlarni topib o‘qing, “Suv va daraxt” ertagidagi daraxtning dimog‘i ko‘tarilib buloqni mensimay qo‘ygan joyni topib o‘qing kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

2. *O‘quvchilarining berilgan savol va topshiriqlarga o‘z so‘zlar bilan javob berishi.* Mashqning bu turi o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g‘oyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan va muayyan izchillikda bo‘lishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim.

3. *O‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish.* O‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to‘g‘ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo‘ladi. O‘quvchilar matnni ongli o‘zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. O‘quvchilarga savol berishni o‘rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o‘rgatish uchun o‘qituvchi matnga o‘zi tuzgan yoki “O‘qish savodxonligi” kitobida berilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlil uchun “Nega u yoki bu savol qo‘yilgan?”, “Unda kim yoki nima haqida gap boradi?”, “Savol ko‘proq qaysi so‘zlar bilan boshlanadi?” kabi savollarni ishlataladi va matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o‘rgatadi.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishslashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o‘quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin:

- 1) so‘z bilan tasvirlash;
- 2) grafik tasvirlash.

So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, unda manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. So‘z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o‘quvchi matnni, undagi voqeа sodir bo‘lgan vaziyatni, qatnashuvchilarning tashqi ko‘rinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. So‘z bilan tasvirlashda so‘zlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o‘qituvchi turli maqsadlarda, chunonchi, reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlashda, voqeа yuz bergen sharoitni aniqlashda foydalanadi. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o‘qituvchi matnning ma’lum qismidan o‘quvchilarga juda ma’qul bo‘lgan manzarani so‘z bilan yoki grafik tasvirlashni, unga muallif so‘zini tanlashni hamda turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko‘rinishini, voqeа sodir bo‘lgan joylarni tasvirlashni topshiriq qilib berishi mumkin.

Grafik tasvirlash ko‘proq uyda bajariladi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o‘qib chiqadilar, mazmunini o‘zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda o‘quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish,

ranglar ifodalaydigan ma'nolar bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Rasmlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Har bir rasm muallifi o'zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarda grafik tasvirlash sinfda ham bajartirilishi mumkin. Bunda o'quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O'quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo'yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to'liq qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

5. Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqr tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining ikkinchi turi o'qituvchi rahbarligida

tanlab o‘qish hisoblanadi, bolalar matndan o‘qituvchi bergen savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topib o‘qiydilar.

Hozir maktab tajribasida izohli o‘qish, ijodiy o‘qish, adabiy o‘qish usulidan, muammoli o‘qitish metodlaridan, ilg‘or pedagogik texnologiya metodlaridan ham keng foydalanilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda, asosan, matn asosidagi tahlildan foydalaniladi, ya’ni, o‘qituvchi asarni tahlil qilishda asar matniga asoslanadi. Uni o‘zgartirmagan holda undagi ma’noni, jozibani o‘quvchilarga yetkazib beradi.

Boshlang‘ich sinflarda muammoli tahlil usulidan ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ham badiiy asar matnnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o‘rganishda o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

2.2. O‘qish savodxonligi darsida badiiy matnni tahlil qilish usuli orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish

Boshlang‘ich sinflarda olib boriladigan barcha mashg‘ulotlarda bolalar nutqini o‘stirish, tovush talaffuzining to‘g‘ri bo‘lishi va ularning lug‘at boyligini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa ta’limning mustahkam poydevorini qurish imkonini beradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar og‘zaki nutqida ayrim so‘z va tovushlarni to‘g‘ri ayta olmaslik, qo‘sishmchalarni yarim talaffuz qilish, tovushlar o‘rnini almashtirish, ayniqsa, sheva ta’sirida gapirish kabi hollar uchraydi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda dastlabki

mashg‘ulotlardanoq o‘quvchilardan gapda so‘zlar tartibiga rioya qilish, to‘g‘ri talaffuz qilishga oid mashqlar o‘tkazish nutq o‘stirishda bosh omildir.

O‘qituvchining savoli ko‘pchilik ichida hali erkin gapishtirsga o‘rganmagan bola uchun yo‘llanma bo‘ladi va u shu yo‘l bilan gapishtirsga, fikrini jamlashga o‘rganadi.

Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish ishlari savod o‘rgatish davridan boshlab, aniqrog‘i, tayyorlov davridan boshlab olib boriladli.

Bu davrda o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) o‘quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushunchalarini kengaytirish bilan bog‘liq holda lug‘atini boyitish;
- 3) o‘quvchilar nutqidagi ayrim so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va 3-4 gapli kichik hikoyachani og‘zaki tuzish ko‘nikmasini tarbiyalashdan iborat bo‘ladi.

Savod o‘rgatish davridagi nutq o‘stirish ishlariiga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, ma’lum belgilari asosida guruhlarga ajratish kabi mashqlar kiradi. O‘quvchilar predmetlarni guruhlarga ajratish jarayonida imlosi qiyin so‘zlarning ma’nosи, talaffuzi va yozilishini bilib oladilar, ularni qatnashtirib og‘zaki gaplar tuzadilar, yaqin ma’noli so‘zlar tanlaydilar. O‘qituvchining topshirig‘iga muvofiq ma’lum bir mavzuda ikki so‘zdan iborat gap tuzadilar. O‘qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o‘qituvchi savoliga to‘liq javob berishga o‘rganadilar. Bunday mashqlar o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish bilan birga, ularning

umumiyl rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi. G.Osipova o'zining og'zaki nutq o'stirishga oid mulohazalarida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni faollashtirishga alohida e'tiborni qaratadi.

O'qish darsida badiiy matnni tahlil qilish usuli orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganishda o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o'qish va nutq o'stirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. O'qish darsligida berilgan mavzular, matnlar ana shu jihatlarni rivojlantirishga qaratilgan. O'quv dasturining o'qish bo'limida bolalarning eshitish uquvlarini tarbiyalash, tez, sekin, qattiq, har xil ohangdagi gaplarni eshitib idrok qilish talab qilinadi. Talaffuzning sofligini ta'minlash dasturdan keng o'rinn olgan. O'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish ko'zda tutilgan. Bolalarning o'z fikr-taassurotlarini ifodalashlari uchun savol-javobli nutqni egallashlariga ko'proq o'rinn beriladi. His-tuyg'uli nutq fikrni ta'sirli ifoda etish, o'qish, paytidagi nutq, ertak aytib berishdagi nutq va ohang, hazil-mutoyibadagi nutq uyg'unlashishi, o'quvchilarga berishi lozim.

O'qish darslarida o'quvchilarni badiiy asarni muntazam mutolaa qilib borish istagini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda badiiy asarni mustaqil mutolaa qilishni shakllantirish badiiy asardagi jozibali tomonlarni ko'ra olish, tushunish va his etishga bog'liqdir. Bu – o'quvchi bilim va tajribasining kengligini, badiiy

mushohada qobiliyatlarining rivojlanishini talab etadi. “O‘quvchi asar voqeasini, uning ichki bog‘lanishini, asar qahramonlarining ruhiy holatini aniq tasavvur etishi asosida badiiy mushohada shakllanadi”. Mushohada yurita olgan o‘quvchigina badiiy asardan ma’naviy ozuqa oladi. Bu ishlarning amalga oshirilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning o‘z kasbiga qiziqishi, darslarga ijodiy munosabatda bo‘lishiga bog‘liqdir.

2.3. Hikoya ustida ishslash metodikasi

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqeа, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonlarning xattiharakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqeа-hodisalari haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo‘lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishslash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqeа-hodisalar, xattiharakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalilanadi.

Hikoyani o‘qish darsida o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar o‘ylashi, o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeanning yo‘nalishini ochishgga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o‘ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyligi bilan o‘ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog‘liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlар bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf (I qism) O‘qish savodxonligi kitobidagi “**Karim polvon**” (Abdulla Saidov), “**Odob**” (Muhabbat Hamidova), “**Yaxshilik**” (Farhod Musajonov), “**Filipok**” (Lev Tolstoy), “**Dum-dumaloq qo‘ng‘iz**” (Aziz Abdurazzoq) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko‘rishni taqozo etadi. Undagi har bir so‘z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o‘qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishslash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoya mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

- 1) matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi savollariga javob berish;
- 2) hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish;
- 3) hikoya mazmuni yuzasidan o‘quvchilarning savollar tuzishi;
- 4) hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish;
- 5) hikoya matnnini qismlarga bo‘lish;
- 6) har bir qismga sarlavha topish;
- 7) hikoyaga reja tuzish;

8) reja asosida qayta hikoyalash (to‘liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash);

9) reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o‘qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o‘ziga xosligi, obrazli tasvirning o‘quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o‘rganishda savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi.

III BOB. HIKOYA MATNI USTIDA ISHLASH USULLARI

3.1. Hikoya matnini ongli o‘qish usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida ko‘plab hikoya matnlari ustida ish olib boriladi. O‘qish ishlari davomida o‘quvchilarning ongli o‘qish malakalarini ochib borishga katta e’tibor berishi lozim. Agar o‘quvchi matnlarni ongli o‘qiy olsa unga ongli mustaqil o‘qish uchun topshirilgan matnlarni u qiziqib o‘qiydi, ularni g‘oyasini yaxshi o‘zlashtira oladi.

Bizning maqsadimiz boshlang‘ich sinflarning o‘quvchilarini har tomonlama faol bo‘lishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar faolligini oshirish deganda ularning faqat darsdagi faolligini emas balki chinakam insoniy faoliyatlaridagi faollikni oshirishni ham tushunamiz. Bu ishlar bir – birlari bilan bog‘liq holda ko‘zga tashlanadiki, ularni ajratib yuborish qiyin. O‘quvchi darsda faol ishtirok etsa, u o‘qituvchining darsdan ko‘zga tutgan barcha maqsadlarning amalga oshishini osonlashtiradi. Har bir mavzuni yaxshi tushuna borgan o‘quvchi barcha insoniy fazilatlarni o‘zida shakllantiradi. Birinchidan, o‘qish texnikasi ma’nosida ikkinchidan teng ma’nodagi o‘qishga nisbatan o‘qish shartlaridan biri ma’nosida qo‘llaniladi. Matnni ongli o‘qish uchun o‘quvchilar o‘qish texnikasini egallagan bo‘lishlari va o‘qish jarayonida qiyalmasligi normal tezlikda o‘qish talab qilinadi. Ular matnni ongli o‘qishlari uchun mant tarkibi badiiy va tasviriy vositalar jixatidan ham uchunchi sinf imkoniyatlari darajasida tahlil qilinadi. O‘quvchilar faolligini oshirish uchun ongli o‘qishga o‘rgatishning quyidagi usullaridan foydalilaniladi:

– asarni o‘qish davomida unda tasvirlangan ayrim narsa va buyumlar namoish etib boriladi. Bunda o‘quvchilar o‘sha narsa va buyumlar haqida ko‘plab ma’lumotga ega bo‘lib boradilar;

– asarni o‘qish davomida narsalarning rasmi ko‘rsatib boriladi.

Masalan: Vatan haqidagi mavzularni o‘rganishda O‘zbekiston manzaralari tasvirlangan rasmlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnlarni ongli o‘qishga o‘rgatishning ahamiyatlari katta.

Ongli o‘qilgan matnni o‘quvchilar yaxshi tushunadilar. Demak sinfda har qanday savol – javoblarni tahlil qilish va bu bilan birga o‘quvchilarning faolligini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ongli o‘qish yaxshi o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi.

Ongli o‘qish o‘qilgan matnning aniq mazmunini asarning g‘oyaviy yo‘nalishini obrazlari va badiiy vositalarining rolini tushunib o‘qish shuningdek asarda tasvirlangan voqealarni hodisalarga o‘z munosabatini ifodalay olishi bilan belgilanadi. Birinchi sinf o‘quvchilari bu talablarning barchasiga javob bera olmaydilar.

Ammo bu talablarning uchinchi sinf imkoniyati darajasidagilarda foydalanish mumkin. Ongli o‘qish o‘z navbatida o‘quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Hozirda ongli o‘qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma’noda matnda nomlari tilga olingan buyuk ishlarning portretlari yoki rasmlari. Agar iloji bo‘lmasa kompyuter monitori yoki ekran orqali rangli tasvirlar bersa, yana ham yaxshi bo‘ladi. Unda asarni o‘qish davomida ayrim narsalarning modeli, maketi namoyish etiladi; ayrim so‘zlar sinonimlar vositasida izohlab beriladi; ayrim so‘zlar boshqa jumla tuzib izohlanadi; ayrim

qo'shma so'zlar qismlarga bo'lib izohlanadi; ayrim asarlar sahnalashtiriladi.³

Sahnalashtirish ishlari uchinchi sinfda qiyinroq bo'ladi. Ammo bu ishga o'quvchilarining qiziqishlari yuqori darajada bo'ladi. O'quvchilarining faolliklarini oshirishda, o'qish malakalarini o'stirishda ongli o'qish ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

Masalan,

1. Avval o'quvchi matn mazmunini so'zlab beradi.
 2. O'quvchilarga so'zlab berilgan matn bo'yicha savollar beriladi va barcha savollarga javob olishga erishiladi.
 3. Matndagi ayrim so'zlar izohlab beriladi.
 4. Matndagi ayrim voqeа – hodisalarga o'qituvchilar o'z munosabatlarini bildirishlari kerak.
 5. Matn g'oyasini o'qituvchi to'g'ri tushuntirib berishi kerak.
- Boshlang'ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, masal, maqol, topishmoqlar ustida ishlanib, ularning mazmuni asosida o'quvchilarda muayyan axloqiy sifatlar shakllantirib borilsa, tuzilishi, shakli orasida esa badiiy asarning kompazitsiyasi, unda ishlatilgan badiiy vositalar o'rgatiladi. Turli janrlardagi badiiy asarlar qurilishi stilistik priomlari ustida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi.⁴ Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchi unga mos usul va yo'llarni tanlashi talab etiladi. Shunday qilib, ongli o'qishning muhim sharti, matnning

³ Q.Shodieva. Nutq o'stirish uslubiyati. – Toshkent: "O'qituvchi", 2002. 8-bet.

qurilishi mazmunini tushunish asosida o‘quvchilarning darsdagi faoliyatlarini jonlantiriladi. O‘qituvchi ongli o‘qishga va matn mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to‘g‘riliigiga qarab o‘quvchilar faolligining oshirilganiga ham ishonch hosil qilamiz.

Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizotni tasvirlaydi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr bo‘lib hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning qaxramonlarning hatti – harakatlari tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqealar – hodisalar haqidagi hikoyalarni ko‘proq qiziqtiradi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya ustida ishlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- 1) hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi;
- 3) hikoya mazmunini ochish lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matn mazmunini qayta hikoyalash asosiy ish turi hisoblanadi;
- 4) matn ustida ishlashda ma’nosi murakkab so‘zlar, turli iboralar, ma’lumotlar, atamalar izohlab beriladi;
- 5) hikoya mazmuni mantiqiy jihatdan o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilib boriladi;
- 6) hikoya g‘oyasi ochib beriladi;
- 7) asar qurilishi va tili tahlil qilinadi.⁵

⁵ K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2009. 60-bet.

Hikoyani izohli o‘qish darsida quyidagi tizim asosida ish olib boriladi:

- hikoyani o‘qishga tayyorlash;
- hikoya mazmuni bilan tanishtirish;
- hikoyani o‘qish;
- hikoya mazmunining idrok etilishini tekshirish;
- hikoyani qayta ochish;
- hikoya mazmuni bo‘yicha suhbat;
- hikoyaga reja tuzish;
- reja asosida hikoyani qayta so‘zlash;
- hikoya g‘oyasini ochish;
- hikoyani ifodali o‘qitish.⁶

Yuqorida bayon etilgan fikrlarning aksariyati bevosita hikoya janri uchun hosdir.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Hikoyani o‘qish darsida o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar o‘ylashi, o‘z mulohazalarini

⁶ K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2009. 61-bet.

aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to’liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko‘rishni taqozo etadi. Undagi har bir so‘z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoyani o‘rganishda savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallah, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to’liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi⁷.

⁷K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2009. 60-bet.

3.2. Hikoya matnini mustaqil faoliyat va suhbat usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish

Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uyg‘un holda rivojlanish kerak. Buning uchun avvalo o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishiga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlari qanday bo‘lishi kerak. Avvalo, ish turlari o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan ta’lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

O‘quvchilarni aqliy rivojlantirishning shartlaridan biri o‘z topshiriqlarini to‘la “eslab qolish” bajarishlaridir.

Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e’tibor beriladi.

O‘quvchilarning topshiriqni tez to‘g‘ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib, tayanch so‘zlar tavsiya etish foydalidur. O‘quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi tabiiy. Chunki, hali ularning tasavvurlari, yorqin so‘z boyligi yetarli emas.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o‘rganib qolmasliklari uchun ko‘proq ularning o‘zlarini mustaqil fikrlashga da’vat etish lozim. O‘quvchilar e’tiborini jalg etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib Nega?, Nega shunday bo‘ldi?, Seningcha qanday bo‘lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma’qullab, yana o‘ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz kabi rag‘batlantiruvchi so‘zlarni ishlatish foydalidur.

Dastlabki bajargan mustaqil ishidan bola mamnun bo‘lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi – yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi.

Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og‘zaki yoki yozma tarzda bo‘lishi mumkin.

Bola yozishdan oldin o‘ylaydi, fikrini og‘zaki jamlaydi, so‘ng uni yozishga kirishadi. O‘z fikrini bayon qilish yoki qo‘yilgan biror savol, yo masala yuzasidan mushohada yuritishi uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og‘zaki) nutq asosida paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi.

Masalan, o‘quvchi o‘z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o‘ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o‘z - o‘ziga gapiradi. (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o‘qib, og‘zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o‘ylab topib, qanday rasmlar ishslash lozimligini rejalaydi.

Mustaqil ishlar o‘quvchilarni toliqtirmasligi, zerikib ishdan ixloslari qaytmasligini oldini olishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

Mustaqil ishlarga sarflanadigan vaqt 10 - 15 daqiqa bo‘lishi, iloji boricha shu muddat ichida ham dam olish daqiqalari o‘tkazilishi maqsadga muofiqdir.

O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rgatishga quyidagilarga amal qilish lozim:

- beriladigan har bir topshiriq o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos bo‘lsin va qiziqishini uyg‘ota olsin;
- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilsin, o‘quvchiga tushunarli bo‘lsin;
- ishni bajarishida bolalarda o‘ziga ishonch hissi uyg‘onsin, ishga kirishishida ular o‘zlarida dadillik sezsin;
- mustaqil bajariladigan topshiriqlari yakkama – yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o‘quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz);
- topshiriqlarni doimo tekshirib, almashtirilguncha alohida ahamiyat berish kerak;
- topshiriqlarni hamma bir vaqtida boshlab, ma’lum vaqtida tugatishi kerakligini eslatib, bolalarni shu talabni bajarishga ko‘niktirish lozim;
- ish hamisha qulay, saramjon – sarishta bo‘lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo‘lmasligi) kerak;
- topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;
- darslik didaktik materiallar bilan ishslashda uzviylik bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.⁸

⁸ Shodieva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002. 26-bet.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalarni berishni me'yorlash kerak. Bolalar darsdan so'ng (og'ir mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uqlab ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan bolalarni kuzatishlarga undash lozim.

Hozirgi kunda maktablarda iqtidorli bolalar soni tobora ortib borayapti. Bunday bolalar bilan alohida ishlagan ma'qul. Topshiriq turlarini bolalarning imkoniyatlariga qarab almashtirish masalan, bir hikoya yoki she'rni ichida o'qitib uning mazmuni yuzasidan savollarga javob berishni mashq qildirish maqsadga muvofiqdir (matn oxirida berilgan savollar o'qituvchi tomonidan avvaldan doskaga yozib qo'yilgan bo'lishi kerak).

Mustaqil ish turlaridan yana biri tanlab o'qishdir. Bu o'qish turi o'quvchiga ancha yengillik beradi. Chunki, o'quvchi goh oson, goh murakkab parchani tanlaydi. Harqalay o'z kuchiga ishonib ish tutganligining o'zi uning mustaqilligidan dalolat beradi.

Asarda ishtirok etuvchilarining xatti – harakatlarini tushinib olishda ham tanlab o'qish juda katta yordam beradi.

Bunda o'quvchilar matnda asarda ishtirok etgan qahramonlarni tasvirlovchi materiallar to'playdilar. Ulaning tashqi ko'rinishlarini tasvirlovchi yoki ichki kechinmalarini ifodalovchi jumlanı topadilar.

Tanlab o‘qish va badiiy matn ustida ishslash bolalarni ko‘pgina boshqa qiziqarli ishlarga, jumladan, ifodali o‘qishga yo‘llaydi. O‘qituvchi bolalarga biror asardan ayrim qismini tanlab o‘qish topshirig‘ini beradi. O‘quvchilar topshiriqni bajaradilar. O‘qituvchi ular bilimini tekshiradi va:

– Bolalar, endi shu matnni ifodali o‘qishga tayyorlaning - deb topshiriq beradi.

Bolalar bu topshiriqni astoydil bajarishga urinishadilar, lekin ifodali o‘qish ular uchun ancha qiyinlik qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi bu o‘qish turining ba’zi unsurlarinigina shakllantiradi va asta – sekin takomillashtirib boradi. Shunday qilinganda bolalar bu o‘qish turini o‘zlashtirishga o‘z o‘qishlaridan bahra olishga odatlanadilar.

O‘qituvchining ifodali o‘qishi bolalar uchun na’muna bo‘ladi. Ular o‘qituvchiga taqlid qilish, ovozlarini boshqarishga harakat qiladilar.

“O‘qish savodxonligi” kitobida matnlardan so‘ng va har bir bo‘lim oxirida berilgan savol va topshiriqlar bolalarning mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

O‘qilgan asar yuzasidan savollar tuzishni mashq qilish mazkur yoshdagи bolalarga murakkabdek tuyuladi. Lekin, surunkali mashqlar ularda ma’lum ko‘nikma hosil qiladi. Tuzilgan savollar matndan so‘ng berilgan tayyor savol va topshiriqlardan farq qilishini avvaldan ularga eslatiladi. Buning uchun asarni qayta – qayta o‘qib, mazmunini tushunib olish omillari kerakligi uqtiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga asarning ma'lum bir qismini o'qishni va shu parcha yuzasidan qanday savollar berish mumkinligini o'ylashni topshiradi. Bunday topshiriqlarni ham birday bajara olmasligi tabiiy. Agar bu topshiriqnini sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar bajarsa, boshqalari ham ularga ergashadilar.

3 - sinf (1-qism) O'qish savodxonligi kitobida Roald Dalning "Oyog'i osmonda bo'lgan sichqonchalar" hikoyasini ham mustaqil faoliyat asosida o'rgatish mumkin. O'quvchilar hikoyani o'zlari o'qib chiqadilar.

Bu hikoyani o'quvchilar o'qib bo'lganlaridan so'ng ularga quyidagi savollar beriladi:

1. Levon nima uchun sichqonlardan qutilishni istadi?
2. Nima deb o'ylaysiz, sichqonlarni aldash oson bo'ldimi?
3. Siz Levonni o'rnila bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

Shu kabi savollar bilan o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlantiriladi, olam sizga teskari bo'lib ko'rinsa-da, siz yerda turganingizga ishonch hosil qiling kabi g'oya singdiriladi. Shu bilan birga o'quvchilar mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

Yusuf Xos Hojibning "Odamdan nima qoladi" hikoyasi orqali ilmning inson hayotidagi o'rni, bilimdan aziz hech narsa yo'qligi, kishilarga ko'rsatiladigan hurmatning sababi ham ilm ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Bu hikoyalarni suhbat usulida o'rgatish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda suhbat usulining o'rni katta. Suhbat ta'lim-tarbiyaviy ishning murakkab turidir. Suhbat o'qituvchining sinfdagi hamma o'quvchilar bilan

ma'lum bir mavzu yuzasidan maqsadga qaratilgan holda tashkiliy so'zlashishidur.

Suhbat o'quvchilarни jamoaga birlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilim va tasavvurlarini mustahkamlaydi, ularning nutqiga sezilarli darajada ta'sir etadi, o'qituvchining gaplarini, o'rtoqlari berayotgan javobini e'tibor bilan eshitishga odatlanadi. Suhbat uslubiyati bolalarda bilim, axloqiy sifatlarni tarkib toptirish bilangina cheklanmay, balki ularning bog'lanishli nutqini o'stirishda, tevarak atrofdagi narsalarga qiziqishga, ularni aniq ko'rishga va ushbu narsalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatishda muhim vosita hisoblanadi.

Dunyoda shunday bir buyuk va bokira tuyg'u borki, u insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, ko'rinmas rishtalar orqali bog'lab turuvchi, yer yuzini zulmatdan yorug'likka bir kuch, kurrai-zamindagi har bir tirik jonzotga, xoh u inson bo'lsin, xoh hayvon va qushlar, hattoki o'simliklar, parrandayu-darrandalarga ham suv va havodek zarur hisoblanadi. Bu tuyg'uning nomini "Mehr-muhabbat" deya ataydilar. So'zimning boshini bejiz bu nom bilan boshlamadim. Chunki, dunyoga kelgan har bir mavjudot ko'z ochgan chog'idanoq o'z atrofidagilardan mehr kutib yashaydi. Inson tug'ilari ekan, to vafot qadar tabiat bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Biz bejiz tabiatni "Ona tabiat" deya atamaymiz. Chunki, ona o'z farzandini oq sut berib ulg'aytirsa, tabiat ham uni o'z taftida mehr berib katta qiladi. Inson ilk qadamlarini ona yer bag'riga qo'yadi. Tabiat bizni ulg'ayib, kamol topishimiz uchun barcha shart sharoitlarni muhayyo qiladi. Shu o'rinda xaqli bir savol tug'iladi. Mana shunday oljanob ishlari uchun inson tabiatga odilona munosabatda

bo‘lyaptimi? Nima uchun butun yer yuzida ekologiyaning buzilishi, ekologik muammolar yuzaga kelyapti?

Albatta, bunday noxush voqealar sodir bo‘lishiga sabab insonlar ongidagi ekologik madaniyatning to‘la aks etmaganligi, ekologik tarbiyaning esa to‘la rivojlanmaganligidir.

Barchamizga ma’lumki boshlang‘ich sinf maktab ta’limining poydevor qismi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyani shakllantirishda mazkur kasb egalarining roli va mas’uliyati benihoya kattadir. Xo‘sish, biz oldimizda turgan ushbu mas’uliyatli vazifani qay yo‘sinda bajarishimiz mumkin. Bunda suhbat usulidan foydalanishimiz mumkin. Masalan, 3-sinf (I qism) “O‘qish savodxonligi” kitobidagi “Dum-dumaloq qo‘ng‘iz” hikoyasi orqali bolajonlarga estetik, axloqiy va eng muhim bo‘lgan mehnatning inson hayotidagi o‘rnihaqida ma’lumot bera olishimiz mumkin. Hikoya bilan bolalarni qay yo‘sinda tanishtiramiz.

Eng avvalo, bolalarga shunday savol beramiz:

- *Bolajonlar, mehnat haqida qanday maqollarni bilasizlar? Keling, ularni birgalikda aytib ko‘ramiz.*
- *Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyligi. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.*
- *Barakalla, biz bugun sizlar bilan tanishadigan hikoya ham sizlar yuqorida sanab o‘tgan maqollar haqidadir.*

Ushbu hikoya “Dum-dumaloq qo‘ng‘iz” deya nomlanadi. Matn o‘qib eshittiriladi.

Hikoya matni o‘qib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi savollar asosida suhbat o‘tkazish mumkin:

1. *Hikoyada dum-dumaloq qo‘ng‘izning yurishi qanday tasvirlangan?*
2. *Chumchuqning nomi nima?*
3. *Mirzasher bog‘da nima qilayotgan edi?*
4. *Sizning ham hikoya qahramoni Mirzasher singari kitobsevar, mehribon do‘stlaringiz bormi? O‘z so‘zlarining bilan izohlang.*

Shu bilan birga o‘quvchilarga “Bahorda ko‘chat ekayapman” mavzusida kichik hikoya tuzdirish ham mumkin. Birgalikda reja tuzish ham maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda hikoyani o‘qishdan tarbiyaviy maqsad o‘quvchilarni saranjom-sarishtalikka o‘rgatish, kattalarning aytganlarini bajarish yaxshi xulq ekanligini o‘quvchilarga singdirishdir.

Rivojlantiruvchi maqsad esa o‘quvchilarni badiiy ifodalar—“ko‘zdan kechirib”, “kiyinishga kirishdik”, “yosh qalqidi” bilan tanishtirish, ifodali o‘qish malakalarini yaxshilashdan iboratdir.

Hikoyani o‘rgatishdan avval o‘tgan darsda o‘tilgan “Sayyoralar”ni o‘quvchilarga o‘qitish va matnga oid berilgan savol-topshiriqlarga javob olinadi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘tgan darsda o‘tilgan “Sayyoralar” nomli ilmiy - ommabop matnni mustahkamlash uchun test topshiriqlariga javob oladi va quyidagicha savol-javob o‘tkazadi:

- Siz qaysi sayyorada yashaysiz? (Javob: – Biz uchinchi Yer sayyorasida yashaymiz).
- Uchinchi Yer sayyorasida yashashingizni qayerdan bildingiz?

(Javob: – Biz uchinchi Yer sayyorasida yashashimizni “Sayyoralar”ni o‘qib bilib oldik).

– To‘g‘ri.

O‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazilgach, “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasini o‘qishga tayyorlanadi.

O‘qituvchi sinf ko‘chma yozuv taxtasiga oldindan yozib qo‘yilgan quyidagi maqollarni ochadi:

– “Qari bilganni pari bilmas”

– “O‘zingdan kattaning aytganiga qulq sol!”

O‘quvchilardan ularni o‘qib, mazmunini aytish so‘raladi. Shundan so‘ng asar bilan tanishtirishga o‘tiladi. O‘quvchilarga hikoyani ichda o‘qish topshiriladi. Topshiriq bajarilgach, hikoya o‘quvchilarga navbat bilan ifodali o‘qitiladi, o‘qigani so‘zlatiladi.

Hikoya o‘qittirib bo‘linganidan so‘ng lug‘at ustida ishslash: gavjum – odamlar ko‘p joy;

charos – uzumning turi, yumaloq qora uzum;

charos ko‘zlarda – yumaloq qora ko‘zlarda.

Shu bilan birga quyidagi badiiy ifodalar ustida ham ishlanadi: “ko‘zdan kechirib” (qarab), “kiyinishga kirishdi” (kiyina boshlad), “yosh qalqidi” (yosh keldi) so‘z birikmalarini o‘quvchilar qanday tushungani, o‘rniga qanday so‘z ishlatish mumkinligini quyidagi savol-javob orqali aniqlanadi:

–“Uning charos ko‘zlarida yosh qalqidi” gapini qanday tushundingiz? (Javob: *Uning charos ko‘zlariga yosh keldi*).

– Charos so‘zi necha xil ma’noda qo‘llanadi? Asarda charos so‘zi qanday ma’noda ishlatilgan? (Javob: *Charos so‘zi ikki xil ma’noda*

qo‘llangan. Asarda charos so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilgan).

O‘quvchilarning hikoya yuzasidan tushunchalari suhbat orqali aniqlanadi.

1-o‘quvchi: Asar kim haqida hikoya qiladi? (Javob: Asar Sohiba haqida hikoya qiladi).

2-o‘quvchi: Habiba opa Sohibaga nima deb nasihat qilardi? Nima uchun? (Javob: Sohiba kiyimlarini har yerga tashlab qo‘yardi. Habiba opa Sohibaga kiyimlarini qoziqqa ilib qo‘yishni nasihat qilardi).

3-o‘quvchi: Sohibaning ko‘ylagi qayerdan topildi? Ko‘ylak qay ahvolda

edi? (Javob: Sohibaning ko‘ylagi karavot tagidan topildi. U g‘ijim bo‘lib ketgandi).

4-o‘quvchi: Sohibaning shundoq ketaveraman, – deb aytishiga sabab nima? (Javob: Onasi: Qizim, dugonangning tug‘ilgan kuniga g‘ijimlangan ko‘ylakda borasanmi? Kel, dazmollab beray,—dedi. Sohiba: Shundoq ketaveraman, – deb onasining aytganini qilmadi).

5-o‘quvchi: Qizlar qanday kiyinishgan? Sohiba-chi? (Javob: *Qizlar yaxshi kiyinishgan. Sochlariga chiroylil lenta taqishgan. Sohibaning sochlari to‘zigan. Ko‘ylagi g‘ijim. Sohiba barmoqlari bilan sochlari silliqlardi.*)

4-o‘quvchi: Sohibaning qizarib ketishiga sabab nima? (Javob: *Sohiba Saodatga ko‘ylaging chiroylil ekan, – dedi.*)

- Seniki ham yomon emas, faqat dazmullanmagan, —dedi Saodat. (*Sohiba qizarib ketdi.*)

Javoblar muhokama qilinadi va hikoyani turli topshiriqlar

asosida qayta o‘qittiriladi.

O‘quvchilar hikoyaning birinchi, ikkinchi bo‘limini ichda o‘qiydilar. O‘qituvchi hamkorligida bo‘limlarni qismlarga boiadilar va ularga sarlavha topadilar. Sarlavhalardan eng ma’qullari tanlab olinadi hamda o‘qituvchi tomonidan yozuv taxtasiga yoziladi.

Natijada quyidagi reja yuzaga keladi:

- 1) peshin vaqt;
- 2) ona nasihat;
- 3) sohiba unamadi;
- 4) sohiba mehmonda;
- 5) pushaymon bo‘ldi.

O‘quvchilar reja asosida matnni to‘liq qayta hikoya qiladilar.

So‘ngra quyidagi topshiriqlar asosida tanlab o‘qish olib boriladi:

– Sohibaning onasi gapiga quloq solmaganini matndagi qaysi gapdan bilish mumkin? O‘qib bering. (*Javob: E-e, shundoq ketaveraman, – deya chopib chiqib ketdi*);

– Yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan fikri hikoyadagi qaysi gapda o‘z ifodasini topgan? O‘qib bering. (*Javob: Hammasiga o‘zim sababchi, nega oyijonim aytganlarida ko‘nmadim*);

Tanlab o‘qish olib borilganidan keyin “aqliy hujum” quyidagi kabi savollar asosida o‘tkaziladi:

– Sohibani qanday qiz deb o‘ylaysiz? (*Javob: Sohiba shoshqaloq, tartibsiz, kattalarning aytganini qilmaydi, sochlarini to‘zg‘itib yuradi. O‘zining qiliqlaridan pushaymon bo‘lgan qiz*);

– Siz nima deb o‘ylaysiz, Sohiba yaxshi xulqli bo‘ladimi,

yo‘qmi? (*Javob: Sohiba o‘zgaradi. Xulqi yaxshi bo‘ladi. Onasining aytganlarini qiladigan bo‘ladi*);

“Aqliy hujum”dan so‘ng darsda o‘rganilganlarni umumlashtirish va yakunlash uchun savol- javoblarni o‘tkazish mumkin:

Savol:

1. *Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz?*
2. *Kimning asarini o‘qidik?*
3. *Qanday asarni o‘qidik?*

O‘qituvchi o‘quvchilar javoblarini umumlashtiradi.

Uyga vazifa sifatida ”Sohiba kimdan xafa?” hikoyasini o‘qish va berilgan reja asosida to‘liq hikoyalashga tayyorlanish, Sohibaning mehmonga borgan holati rasmini chizishni yoki bayon yozib kelishni ham topshirish ma’qul bo‘ladi.

O‘quvchilarga “**Men onamning aytganlariga bajaraman**” mavzusida insho ham yozdirish mumkin.

Yuqorida olib borilgan ishlarning barchasi o‘quvchilar nutqini o‘stirishga katta yordam beradi.

3.3. Hikoya matnni izohli o‘qish usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari

orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartlari talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallahashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda “O‘qish savodxonligi” darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. Bunday asarlar o‘ziga xos usulda o‘rgatiladi. Ana shunday usllardan biri izohli o‘qish usulidir.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish dasturlarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishslash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti – harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo‘ladi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqeа – hodisalar, hatti – harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalilaniladi.

Hikoyani o‘qish darsida o‘quvchilar ma’nosini tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So‘z ma’nosini tushuntirishga ko‘p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushuntirishda eng zarur bo‘lgan so‘zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o‘qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qilgach, o‘quvchilar o‘ylashi o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishiga vaqt berish talab etiladi. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan- yoqmagani, undagi qaysi qahramonning fe’l-atvori bolaga ta’sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat shundan keyingina hikoya syujeti, voqeanning yo‘nalishini ochishga, sharoitni personajlar harakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalilanadi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to‘liq tushuntirishga burilib ketib, qatnashuvchilarga harakteristika, asar qurilishini va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Savollarni, odatda o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmunini qatnashuvchi shaxslarning hulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish yuzasidan juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlashtiradi: asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallah, mazmun va voqealar orasidagi bog’lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g‘oyani bilib olishlari uchun tekst bilan ishslash jarayonida tanlab o‘qish, ma'lum topshiriq bilan qayta o‘qish, savollarga javob berish hikoyani qismiga o‘zлari savol tuzish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan ifodali o‘qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalilanadi.

Kichik badiiy hikoyani izohli o‘qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi e’tiborga olinadi:

1. Hikoyani o‘qishga tayyorlash (*hikoyaga tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...)*);
2. Hikoyani (*to ‘liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini*) o‘qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o‘quvchining ifodali o‘qishi.
3. Idrok etishni tekshirish (*qatnashuvchi shaxslarning xattiharakatlari, shaxslar va voqealar o‘rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat*).
4. Hikoyani qayta o‘qish (*hikoyani qismlarga bo‘lish, o‘quvchilarga o‘qitish, ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish*);
5. Hikoyaning har bir bo‘lim yuzasidan suhbat o‘tkazish va sarlavha topish, hikoya rejасini tushuntirish;
6. Hikoyaning ayrim bo‘limlarini ifodali o‘qish;
7. Reja asosida qayta hikoyalash;
8. Hikoyani ifodali o‘qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlash (*sinfda yoki uyda*);
9. Hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoya qilish.⁹

“Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik” bo‘limida Mirkarim Osimning “Kitobga ixlos”¹⁰ hikoyasi berilgan. Hikoyani izohli o‘qish usulida o‘rgatish mumkin. Hikoyaning matni o‘qittiriladi.

Hikoyani iloji bo’lsa har bir gapini o‘qituvchi izohi bilan o‘qib bergани ma’qul. So‘ngra lug‘at ustida ish olib boriladi. Tushuntirish

⁹ K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2009. 53-bet.

¹⁰ M. Umarova, Sh. Hakimova. O‘qish kitobi. Umumta’lim maktablarining uchinchi sinfi uchun darslik. –Toshkent, 2016. 123-bet.

qiycin bo‘lgan quyidagi so‘zlar izohlab beriladi: marhum, saroy, ta’lim, tarbiya, yollab, muallim, tabib, dong‘i, kasalmand, mashhur, maslahat, ark, amaldor, hakim, rangpar, ishora, bemor, choshgoh, iste’mol, avf. O‘quvchilar izohlangan so‘zlarni daftarlariiga ham yozib oladilar. Shundan so‘ng quyidagi reja asosida o‘quvchilar gapirib berishlari ham mumkin:

1. Abdullaning vafoti.
2. Ark suv quygandek jimjit.
3. Bemorga berilgan topshiriqlar.
4. Avf etsinlar.
5. Menga pul emas, ilm kerak.

Reja asosida gapirib berilganidan so‘ng quyidagi savollar asosida suhbat ham o’tkazish mumkin:

1. Husaynning otasi qayerda xizmat qilar edi?
2. U o‘g‘liga qanday tarbiya bergen edi?
3. Otasi o‘lganidan keyin qanday kun ko‘rdi?
4. Nuh binni Mansur Husaynni nima uchun saroyga chaqirtirdi?
5. Yosh hakim bemordan nimani so‘radi?
6. Bemorga qanday maslahat berdi?
7. Ibn Sno nima uchun avf so‘radi?
8. Podshoh Ibn Sinoni qanday kutiib oldi?
9. U Ibn Sinoga nimani taklif qildi?
10. Ibn Sino qanday javob berdi?

Suhbat asosida hikoyaning mazmuni o‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘ladi.

Ikkinchi hikoya “Ibn Sinoning shogirdlari”¹¹ deb nomlanadi. Matn izohli o‘qish usulida o‘qib beriladi. Tushunilishi qiyin bo‘lgan quyidagi so‘zlar izohlab beriladi: tabib, birodar, ulug‘, shogird, kuni bitmoq, onda-sonda, ziyyorat, tabobat, oqsamoq, parhez, mijoz, kayfiyat, apiltapil, bevaqt.

Lug‘at ustida ishlaganimizdan so‘ng quyidagi savollar asosida savol-javob o‘tkaziladi:

1. Ibn Sino shogirdlariga nimalar haqida so‘zladi?
2. Ibn Sino qoldirgan tabiblarni matndan toping va o‘qib bering.
3. Rivoyat sizda qanday taassurot qoldirdi?

Uyga vazifa sifatida rivoyat yuzasidan bayon yozib kelishini topshirish mumkin.

Yuqorida takidlab o‘tganimizdek, binoning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, qurilayotgan binoning o‘zi ham shunchalik puxta va pishiq bo‘ladi. Ana shu poydevorni barpo etguvchi insonlar esa biz o‘qituvchi va murabbiylar bo‘lamiz. Zero, bolalarni yoshlikdanoq atrof-muhitga, hayvonot dunyosi va o‘simgiliklarga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va mahoratimizni ishga solish oldimizda turgan eng muhim va muqaddas vazifadir.

¹¹ M. Umarova, Sh. Hakimova. O‘qish kitobi. Umumta’lim mакtablarining uchinchi sinfi uchun darslik.
– Toshkent, 2016. 125-bet.

3.4. Hikoya matnini qayta hikoya qilish usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish

Qayta hikoya qilish – hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarning ma’nosini og‘zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish bolalar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsiyal va og‘zaki so‘zlarni egallahsga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko‘nikmasini o‘stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallaflarning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og‘zaki aytib bera olishni shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o‘rgatish samarali bo‘lishi uchun eng avvalo qayta hikoya qilish uchun matnlarni to‘g‘ri tanlash lozim.

Har bir asar bolalarda jamyatimiz uchun zarur bo‘lgan sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun asar tanlaganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g‘oyaviy-mantiqiy yo‘nalishga ega bo‘lish jo‘shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazliligi, voqealarning ketma-ketligi, mazmunining qiziqlarliligi, shu bilan bir qatorda badiiy asarning hajmi va uning bola yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo‘lmagan hikoyalar misol bo‘la olishi mumkin. Bolalarning qayta hikoyalariga bir qancha talablar qo‘yilgan:

1. Ma’nosiga tushungan holda, ya’ni matnni to‘liq tushunib hikoya qilish.
2. Asarni to‘liq bayon etish, ya’ni asardan muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish.

3. Izchillik (ketma – ketlik) bilan hikoya qilish.
4. Muallif matndagi lug‘atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so‘zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish.
5. To‘g‘ri ohangdan foydalanish, uzoq pauzalarning bo‘lmasligi.
6. Og‘zaki nutq madaniyatiga e’tibor berish: qayta hikoya qilayotganda gavdani to‘g‘ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma’nodorligidan (ifodaliligidan) foydalanish, yetarlicha baland ovozda tovushlarini aniq talaffuz qilish.¹²

Ushbu talablarning barchasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘lib, bulardan birortasini ham e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Ma’lumki, qayta hikoya qilish monolog nutqni shakllantirishda eng birinchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun har bir bola qayta hikoya qilishni yaxshi egallab olishi shart. Buning uchun har xil usullardan foydalaniladi. **Bular quyidagilar:**

- o‘qituvchi bu usuldan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalanish kerak;
- qayta hikoya qilish jarayonida o‘qituvchi bolalarga sezdirmagan holda gavdasini to‘g‘rilash, imo-ishora, ko‘z qarashi bilan dalda berish mumkin. Darsning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: “Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo‘ladi. Faqat keyingi safar baland ovozda hikoya qilgin”;
- qayta hikoyani takrorlash. Bu usuldan ko‘proq 3-4-sinfda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bo‘lgan usuldir, chunki u

¹² K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2009, 53-bet.

o‘qituvchining hikoyasiga alohida luqma tanlash (gap qisqartirish) bilan birga, to‘liq jumlalarni ham takrorlashga to‘g‘ri keladi;

– So‘z va jumlalarni aytib turish. Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta’minlaydi, uzoq pauza qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Bu usuldan ko‘proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi.

Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq san’ati juda sekin bo‘lsa, o‘qituvchi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e’tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini jamlashi kerak.

Agar bola hikoya qilayotgan vaqtida tebranib (chayqalib) tursa, boshini egsa, qo‘li bilan ortiqcha harakatlarni qilsa, uning hikoyasini bo‘lib, tanbeh berish yaramaydi, balki bunday hollarda imo-ishora, ko‘z qarashi bilan, uning xatosini, kamchiligin tuzatishi, hikoya qilib bergandan keyin esa hammaga eshitarli qilib: “Hikoya qilayotganda tinch turishing, boshingni pastga egmasdan o‘rtoqlaringga qarab turishing kerak, axir ular sening hikoyangni tinglashadi-ku”, deb aytishi kerak. O‘qituvchi bolaning bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo‘ysa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib berish mashg‘ulotidan oldin bir marta bolani ogohlantirishda bundan foydalaniladi. O‘qituvchi aytib turish orqali bolani qayta hikoya qilayotganda yo‘l qo‘ygan grammatik xatolarni to‘g‘rilaydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o‘rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo‘llaniladi.

Savollar berish. Bu usul keng tarqalgan bo‘lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladi. Qayta hikoya

qilish mashg‘ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatalishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilmaydigan bolalarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin. Bu hikoyani boshlashga yordam beradi.

Ba’zan bola o‘ziga ishonch bilan qayta hikoya qilayotgan vaqtida asar matnini esdan chiqarib, birdan to‘xtab qoladi. Bu ko‘pincha uzun matnni hikoya qilayotgan vaqtida sodir bo‘ladi. Bunday holda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi yoki aytib beruvchi savol beradi. Ba’zan bunday holatlarda boshqa bolalarni hikoya qiluvchiga yordam berishga taklif etadi. Savol bilan murojaat etish tinglovchilarning diqqatini va fikrini faollashtiradi. Savol guruhdagi hamma bolalarga beriladi, ammo javobni pauzani cho‘zmaslik uchun, o‘zi ishongan boladan so‘raydi. Ba’zan xo‘r bo‘lib aytib berishga ham ruxsat etish mumkin.

Bola qayta hikoya qilib bergandan keyin albatta savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini bola qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi. Matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtida tashlab ketilgan joylarni tiklashga yordam beradi.

Ayrim hollarda hikoya qilishdan keyin qaxramonlarning fe’l-atvori yoki ularni ifodali nutqi haqida savol berish mumkin.

Qayta hikoya qilish o‘rtasida uncha katta bo‘limgan mashqlar o‘tkazish yoki ko‘rsatma berishdan foydalanish mumkin. Shuningdek, asar matnining ayrim joylarini yana bir marta takrorlash usulini qo‘llash mumkin.

Rag ‘batlantirish. Qayta hikoya qilish jarayonida o‘qituvchi bolani jilmayishi, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so‘z aytish (“yana”, “barakalla”) bilan rag‘batlantiradi.

Qayta hikoya qilib bergandan so‘ng bolani maqtaydi. Bunda qayta hikoya qilishi biror ijobiy suratini ta’kidlab qo‘yadi.

Qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish. Bu usul bolalar idrokining qimmatini yo‘qotmaydi, chunki qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg‘ulotni tashkil etish jarayoni bolalardan kun davomida so‘rash imkonini yaratib beradi.

Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish. Bu usul nutqning ma’nodorligini (ifodalilagini) shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar harakterining izohlanishi bolalar nutqining oydinlashishiga katta ta’sir etadi. Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish o‘rta guruhdan boshlanib qo‘llaniladi. Bu usuldan darsning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘yin usuli. Bu usulda bolalar imo-ishoradan hayvonlarning ovozlariga taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o‘yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi.

O‘qituvchi avval o‘zi muallif nomidan gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo‘s sh rivojlangan bolalar chaqiriladi. Dramalashtirilgan o‘yin 5 daqiqa davom etadi. Turli sinflarda qayta hikoya qilib berishga o‘rgatish mashg‘ulotning tuzilishi (o‘tkazish uslubiyati) har-xil bo‘ladi.

Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Tushunish bola xotirasida matn mazmunining uzoq saqlanishini ta’minlaydi. Bola eshitganlari haqida o‘ylaydi va

ma’nosiga tushunib, xotirasida olib qoladi. Shuning uchun qayta hikoya qilishga o‘rgatishda foydalaniladigan metodik usullar bolalarga matnni tushunib idrok qilishga yordam berishi kerak. Agar asarni tushunish qiyin bo‘lsa, uni qayta hikoya qilish mashg‘ulotidan bir hafta oldin bolalarga o‘qib berish va muhokama qilish mumkin. Agar tanlangan asar matni qisqa, tushunish oson, bolalarga tanish bo‘lsa, bir mashg‘ulotning o‘zida ham o‘qib beriladi, ham tahlil qilinadi va qayta hikoya qildiriladi.

Qayta hikoya qilish mashg‘ulotlari har bir sinf xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Quyi sinf bilan quyidagi ishlar olib boriladi: tinglay olish malakasini hosil qilish, savollarga javob berish, o‘qituvchi hikoyasiga qo‘sishimcha ayrim so‘z va gaplarni qo‘yish.

Shularni hisobga olib, o‘qituvchi oldiga ikkita vazifa qo‘yiladi:

1. O‘qib berilayotgan asar matnnini idrok qilishga, keyin esa hikoya qilib berishga o‘rgatish.
2. Matnni qayta hikoya qilishga o‘rgatish.

Bolalarga qayta hikoya qilishlari uchun tavsiya etilgan asarlar mavzusi, mazmuni va shakli jihatidan katta farq qiladi. Shuning uchun bolalarga qayta hikoya qilishga o‘rgatishdagi muhim vazifasi – bu ularga asarning mantiqiy bog‘lanishini, uning mazmunini tushunib olishga yordam berishdir. Bunga asarni dastlabki o‘qishdan so‘ng o‘tkaziladigan suhbat orqali erishish mumkin. Bunday suhbatda tarbiyachining savollari asosiy metodik usul bo‘lib hisoblanadi.

Badiiy asarlar yuzasidan ikki guruhdagi savollar berilishi mumkin:

- a) asar mazmunini tushunib olishga yordam beruvchi;
- b) voqeaning ketma-ketligini esga tushirishga yordam beruvchi.

Shuningdek, asar bo‘lib berilgandan keyingi suhbat bola nutqidagi lug‘at boyligini aniqlash va faollashtirish, qaxramonlarning ovozlarini ifodali bayon etishga ta’sir etish kabilarni amalga oshirishga yordam beradi.

Bola qayta hikoya qilayotganda o‘qituvchi jumلالарни унинг исига туширив туради. Есидан чиқарган со‘зларни айтив туради. Бу qayta hikoya qilishning ravonligini ta’minlaydi, jumlalar uzilib qolishining oldini oladi. Sekin-astalik bilan bolaning qayta hikoya qilishiga talab orta boradi. Endi o‘qituvchi boladan hikoyaning to‘liq bo‘lishini, asarni qayta hikoya qilib berayotgan bola diqqatini asardagi personajlarning so‘zlarini ifodali qilib aytib berishga jalb qilish kerak. Savollar bo‘yicha qayta hikoya qilishdan ham foydalanish mumkin. Ba’zi hollarda bolalar asar mazmunini o‘z so‘zлари bilan bayon etadilar. Bunday holda bola tomonidan tanlangan so‘zлarni muallifning fikrini aniq va to‘g‘ri ifodalashni nazorat qilib borish kerak.

Bolalarning qayta hikoya qilishlarini baholash muhim uslubiy usullardan hisoblanadi. Bolalarning hikoyasini o‘qituvchi baholaydi. Унинг yaxshi tomonlarini va kamchiliklarini, harakatchanligini aytib, qisqa tahlil qilish lozim. Bu bilan quyidagi dastur vazifasini bajarish zarur: bolalarda qayta hikoya qilishda matnga to‘g‘ri kelmaydigan joylarni sezalish qobiliyatini tarbiyalash. O‘qituvchi bolalarni qayta

hikoya qilishga o‘rgatish orqali ularning nutq faolligini, mustaqilligini rivojlantirishga ta’sir etadi.

3-4 - sinflarda asarlarni qayta hikoya qilishga o‘rgatishda o‘qituvchining yordamchi savollarisiz ertak va hikoyalarni mazmunini bir-biriga bog‘lab, izchillik bilan ifoda vositalaridan foydalanib, grammatik tomondan to‘g‘ri bayon eta olishga o‘rgatish ancha murakkab, hajmi kattaroq bo‘lgan asarlarni qayta hikoya qilish taklif etiladi.

“Chaqimchiga mukofot”¹³ hikoyasini qayta hikoya qilish usulida o‘rgatish mumkin. Dastlab hikoya ifodali qilib o‘qib beriladi.

Hikoya o‘qib bo‘lingach, quyidagi savollar asosida qayta hikoya qilinadi:

1. Hokim kim bilan ovga chiqdi?
2. Hokim otboqarga qanday sirni aytdi?
3. Otboqar qanday va’da berdi?
4. Otboqar o‘z va’dasida turdimi?
5. Hokimning ukasi qanday yo‘l tutdi?
6. Otboqar to‘g‘ri qildimi?
7. Hokimning ukasichi?
8. Chaqimchilik qanday odat?

“Omonatga hiyonat”¹⁴ hikoyasini ham qayta hikoya qilish usulida o‘rgatish mumkin. Dastlab hikoya o‘qib beriladi.

¹³ S.Matjonov, A. Shojalilov, X.G’ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik. –Toshkent, 2017. 43-bet.

¹⁴ S.Matjonov, A. Shojalilov, X.G’ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik. –Toshkent, 2017. 45-bet.

Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi, ular asosida hikoya qayta hikoya qilinadi:

1. Safarga ketayotgan kishi o‘z do‘stiga nimani omonat topshiradi?
2. Do‘sti omonatni asray oldimi?
3. Safarga ketgan kishi xaltachani ko‘rib nima dedi?
4. Qozi omonatga hiyonat qilinganini qanday aniqladi?
5. Do‘stning ishi to‘g‘rimi?

Qayta hikoya tugallangach, bayon ham yozdirilishi mumkin. O‘quvchilar o‘z fikrlarini yanada kengroq bayon qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning nutqini o‘stirishga katta yordam beradi.

3.5. Hikoya matnini kichik guruhlarda ishlash usulida o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish

O‘quvchilarga Vatanimiz tarixida o‘tgan xalq qahramonlari, ularning jasorati haqida, Vatan uchun jonini ham fido qilishga tayyor kishilar haqida tushuncha berish bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

4- sinf o‘quvchilarida sinfdan tashqari o‘qish uchun vatanimiz tarixini o‘zida aks ettirgan “Najmuddin Kubro” deb nomlangan ertak-rivoyat berilgan. Unda Najmuddin Kubro orqali vatanga bo‘lgan sadoqat timsoli o‘z aksini topgan. Biz bu ertak-rivoyatni o‘rgatish orqali quyidagi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishimiz mumkin: vatanparvarlik, vatanga sadoqat, xalq tarixiga hurmat bilan qarash hislarini tarbiyalash. Rivoyatni kichik guruhlarda ishlash usulida o‘rgatish mumkin. Kichik guruhlarda ishslash metodi bo‘yicha

ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruuhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun halal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur. Ushbu metodda o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish ko‘zda tutiladi, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish maqsad qilib olnadi.

Kichik guruhlarda ishslash metodining maqsadi va o‘ziga afzallikkari quyidagicha:

- o‘quvchilarni ko‘proq jalb etish va ulaming bir-biridan o‘rganishiga imkon berish;
- yo‘l-yo‘riq berib turadigan murabbiyni “sahnadan” chiqarib yuborish;
- o‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan ko‘proq o‘rtoqlashish uchun imkon beradi;
- o‘quvchilarning nutqini o‘sirishga yordam beradi;
- kichik guruhlarda o‘quvchilar katta guruhlarda aytishlari mumkin bo‘lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

O‘quvchilar tajriba va g‘oyalalar bilan o‘rtoqlashishlari mumkinki, bu - bilimlarni kengaytiradi va mavjud yondashuvlarni o‘zgartiradi.

Diqqat markazni o‘qituvchidan qatnashchilarga ko‘chiradi. O‘quvchilami o‘qish uchun ko‘proq mas’uliyatni o‘z ustlariga olishga majbur qiladi.

„Najmuddin Kubro“ rivoyatini o‘tishdan avval ilgari o’tilgan mavzu so‘ralgach, doskaga yangi mavzu yozib qo‘yiladi. Shundan so‘ng quyidagi fikrlar o‘quvchilarga aytildi:

Tarixda juda ko‘p xalq qahramonlari o‘tgan. Ulardan biri Shiroq haqida siz o‘qigansiz. U Vatanni dushmanidan himoya qilish uchun

jonidan kechgan. Siz Pahlavon Mahmud haqida o‘qib, uning Hindistondan o‘z vatanadoshlarini qutqarib kelganini ham bilib oldingiz. Bularning bari qahramonlik va vatanparvarlik hisoblanadi. O‘tgan darsda siz To‘maris haqida afsona o‘qidingiz. U boshliq massaget qabilalarining Vatan uchun qilgan jang va qahramonligini bilib oldingiz. U hatto Vatan ozodligi uchun o‘z farzandidan ham kechdi. Bugun biz ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan Xorazm elining dono, zukko xalqi uchun, Vatani uchun jonini fido etgan buyuk o‘g‘loni – Najmiddin Kubro haqida o‘qiyimiz. U tarixda qanday inson sifatida nom qoldirganini bilib olasiz.

Najmiddin Kubro o‘z xalqini saqlab qolish uchun jonini fido qilgan. Ilgari o‘tilgan mavzularimizda ham mo‘g‘ul bosqinchilar haqida gapirgan edik. Esingizda bo‘lsa, ular bilan Jaloliddin Manguberdining olib borgan kurashini bilib olgan edik.

“Najmidddin Kubro” ertak-rivoyatida ham XII asrda bo‘lgan voqealar aks ettirilgan. Bu voqealar vatanimizning Xorazm hududida ro‘y bergen.

O‘qituvchi o‘z fikrlarini bayon qilganidan so‘ng eng yaxshi o‘qiydigan 3-4 o‘quvchiga ifodali qilib o‘qittiriladi.

Matn o‘qitilgach, o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- Ertak-rivoyatda qaysi davr tasvirlangan?
- Mo‘g‘ul bosqinchilar Xorazmga nima maqsadda yurish qildilar?
- Najmiddin Kubro mo‘g‘ullar sardori yuborgan maktubiga qanday javob qaytardi?
- Xalq mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi qanday jang qildi?
- Najmiddin Kubro-chi?

- Uning harakatlarini qanday baholaydi?
 - Najmuddin Kubro dushman bilan nima maqsadda jang qildi?
- O‘quvchilarga Najmuddin Kubroning mo‘g‘ullar chopariga bergan javobini daftariga yozib qo‘yish buyuriladi.
- Savol-javob o‘tkazilgach, ko‘rgazmali qurollar asosida o‘qituvchi yana bir bor tarixiy voqealar haqida o‘quvchilarga ma’lumot beriladi (karta yordamida). Shu bilan birga Vatan yo‘lida fidoiylik ko‘rsatgan ajdodlarimizdan Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Muqanna haqida ham kengroq ma’lumot berib o‘tish zarur.
- O‘quvchilarga Najmuddin Kubroning mo‘g‘ullar chopariga bergan javobini daftariga yozib qo‘yish buyuriladi.

Rivoyat qayta qismlarga bo‘lib o‘qitilganda har bir qismdagি asosiy fikr aniqlashtiriladi. Kichik guruhlarda ishslash metodini qo‘llash uchun dastlab rivoyat 7-qismga bo‘linadi va sinf o‘quvchilar ham 7 guruhga bo‘linadi, har bir guruh o‘ziga ajratilgan bo‘limni o‘qishni boshlaydi.

- Bo‘limlar quyidagicha nomlanishi mumkin:
- Urush-janglardan begona yurt (1-qism).
 - Mo‘g‘ul bosqinchilari Xorazmga yurish boshlaydi (2-qism).
 - Xorazm qayg‘uga tushadi (3-qism).
 - Najmuddin Kubroning ko‘ngillari ozor topsa, zinhor g‘alabayi munavvaraga yetishmasmiz (4-qism).
 - Taklif qabul qilindi (5-qism).
 - Choper maktub keltirdi (6-qism).
 - Choperlarning keyingi takliflari (7-qism).

– Shayx Najmiddin Kubro Vatan uchun bo‘lgan jangda shahid bo‘ldi (8-qism).

Har bir guruhdagi o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini aytadilar.

O‘qituvchi bu asosiy fikrlarni doskaga yozib boradi. O‘quvchilar daftarlariiga yozib oladilar. Uyda shular asosida asarga reja tuzib kelish topshirig‘i beriladi.

Reja 8 qismdan iborat bo‘lmasligi ham mumkinligi aytiladi. O‘quvchilar uyda tahminan quyidagicha reja tuzib kelishlari mumkin.

Reja:

1. Tabiat bo‘ston, xalqi dono yurt.
2. Mo‘g‘ul bosqinchilarining hiyla-nayranglari.
3. Najmiddin Kubroning Vatan uchun shahid bo‘lishi.

Shundan so‘ng asar ichda o‘qitiladi. Asarni o‘qiganda o‘zlariga tushunarsiz so‘zlarni belgilab ketish topshirig‘i beriladi.

Matn tahlil qilib bo‘linganidan so‘ng lug‘at ustida ishslash mumkin. **O‘quvchilar bilan quyidagi so‘z, ibora va badiiy til vositalari ustida ishlanadi:**

so‘lim – yoqimli, go‘zal;

bo‘ston – gul-u gulzor, mevalari ko‘p bo‘lgan joy;

halim – yumshoq ko‘ngilli, qattiq va yomon gapirmaydigan;

mo‘g‘ul – millat nomi;

qal’a – shahar;

farmon – buyruq;

murid – buyuk kishilarga ergashadigan odamlar.

Bunga o‘xhash so‘zlarni ko‘plab keltirish mumkin. Ularning ma’nosи oldin o‘quvchilar tomonidan aniqlanadi, so‘ng o‘qituvchi

izohlab beradi. Asardagi ko‘chma ma’noli so‘zlar, badiiy til vositalari ustida ham ishlanadi. Masalan, asarda quyidagi ko‘chma ma’noli so‘zlar, badiiy vositalar berilgan:

Ko‘chma ma’noli so‘zlar: c

- ho‘p qadasang - „eksang” ma’nosida;
- biror ishga qo‘l urmoqchi bo‘lsa – biror ishni boshlamoqchi bo‘lsa;
- qayg‘uga tushibdi – ezilibdi, siqilibdi.

Badiiy til vositalari:

bir qoshiq qonidan kechsangiz;

- ko‘ngillari ozor topsa;
- donolarning donosi;
- qonga-qon, jonga-jon;
- jangda shahid bo‘ldi kabi.

„Bu ko‘chma ma’noli so‘zlarni va badiiy til vositalarini boshqa so‘zlar bilan almashtirib bo‘ladimi?” „Ular bilan almashtirilsa, kitobxonga asar hozirgidek ta’sirli bo‘ladimi?” kabi savollar bilan yozuvchining mahoratini oz bo‘lsa-da, bilishlariga erishish lozim.

O‘quvchilarning o‘zlari ham uyda asar yuzasidan savollar tuzib kelib, o‘rtoqlaridan so‘rashlari vazifa qilib beriladi.

Asar tahlil qilingach, o‘quvchilarning Najmuddin Kubro haqidagi fikrlari so‘raladi. „Najmuddin Kubro orqali yozuvchi sizni qanday inson bo‘lib yetishishga chaqiradi?”. „Siz uning o‘rnida bo‘lsangiz qanday ish tutgan bo‘lardingiz?” kabi savollar bilan asarda ilgari surilayotgan g‘oya ochiladi.

Dars savollar yordamida yakunlanadi:

- Siz kim haqida bilib oldingiz?
- U qanday qahramonlik ko‘rsatdi?
- Najmiddin Kubro, To‘maris, Shiroq haqidagi afsonalarni eshitganmisiz?

– Siz ular haqida qanday fikrdasiz?

– Ularga o‘xshashga harakat qilganmisiz?

Yuqoridagi kabi matnlar orqali xalqimiz tarixi haqidagi ma’lumotlarni asta-sekinlik bilan, tushunarli tarzda berib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi kunning maqsadi ham shu, ya’ni fanlararo integratsiya davr talabidir.

Kichik guruhlarda ishlash usulini qo‘llash orqali o‘quvchilarni mustaqillikka, hozirjavoblikka, o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatadi. Bu orqali o‘quvchilarning nutqi o‘stiriladi va rivojlantiriladi.

3-sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qish uchun “**Chumoli va tipratikan**” masalini olishimiz mumkin. Masalni o‘rgatishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni xushmuomalalikka, o‘zgalarni hurmatlashga o‘rgatish va halollik ruhida tarbiyalash ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga ularda nutq madaniyatini shakllantirish hamda uni hayotda qo‘llay olishni o‘rgatish ko‘nkmalari hosil qilinadi va kerakli asos yaratiladi. “Chumoli va tipratikan” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilar uyda mustaqil tayyorlanishi uchun oldindan ularga qiziqarli va muommoli savollar, topshiriqlar beriladi. Tarqatma materiallar, mavzuga oid rasmlar hamda sinf stol-stullari guruhlar qulay joylashishi uchun tayyorlab qo‘yiladi. Masal ustida ishlashdan avval matn ifodali qilib o‘qittiriladi:

Chumoli va tipratikan

Tipratikan shudgor yuqorisidagi uzumzordan bir bosh uzumni o‘g‘rilab, qo‘rqib-pisib iniga jo‘nabdi. U bolalariga uzumni berib, urug‘ini yutib yubormaslik kerkligini aytibdi.

Tipratikanning bolalari uzumni yeb, urug‘ini yerga tashlabdi. Buni uzoqdan ko‘rib turgan Chumoli sekin o‘rmalab kelibdi-da, uzum urug‘ini olib ketishga ruhsat so‘rabdi.

- Olib ketaver bizga kerak emas, - debdi Tipratikan

Chumoli uzum urug‘ini iniga olib ketayotganda, Tipratikan va uning bolalari:

-O‘zi kichkina-yu, katta narsani olib ketmoqchi bo‘lib urunishini ko‘ringlar-a, obbo badnafs-e! – deyishibdi chumolinining ketidan kulishib.

Ularning bu so‘zlarini eshitgan Chumoli orqasiga qarab:

- Men buni silarga o‘xshab olib ketayotganim yo‘q. Kuchim yetganicha sekin tortib ketyapman. O‘zlarining dan so‘rab halollik bilan oldim.

Halollik shunaqa, kuchga kuch qo‘shadi, - debdi.

Halol boylik qilar sheryurak,

O‘g‘irlilik mol aylar jonsarak.

Masal o‘qilgach, o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. O‘quvchilarni 10 nafardan jamlab, uch guruhga bo‘lish mumkin. (*Bunda o‘quvchilarning jami soni hisobga olinadi, shunga ko‘ra ular guruhlarga bo‘linadi*).

O‘quvchilarni estetik did nuqtayi nazaridan, kelishmovchiliklarsiz guruhlarga bo‘lishda o‘qituvchi quydagilarni amalga oshiradi, masalan, sinf o‘quvchilarining jami sanog‘ini hisobga olib, uch xil rangdagi qog‘ozdan har xil shakldagi kichkina hajmli kesma rasmlar, ya’ni qizil olma, sariq jo‘ja, ko‘k g‘oz kabilarni oldindan tayyorlab qo‘yadi. Tayyorlangan uch xil rangdagi rasmlar o‘quvchilarga tarqatiladi. Bunda har bir o‘quvchiga ixtiyoriy ravishda o‘zi xohlagan rangdagi kesma rasmlardan tanlab olish huquqi beriladi. O‘quvchilar tanlab olgan rangli kesma rasmlar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratadi:

Qizil olma rasmi – 1-guruhi.

Sariq jo‘ja rasmi – 2- guruhi.

Ko‘k qog‘oz rasmi – 3-guruhi.

O‘qituvchi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarga qisqacha yo‘llanma – ko‘rsatma beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘qish darsining har doimidan boshqacharoq tarzda o‘tishini, dars davomida mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini yangi mavzuni o‘qitib, o‘rtoqlariga qay darajada tushuntirib bera olishlarini mavzuni mustahkam ravishda o‘qitib tekshirishini tushuntiradi. Har bir guruhi o‘ziga ajratilgan joyiga o‘tiradi va o‘z sardor, kotiblarini belgilaydi. Sardorlarnong guruhni boshqarishi, kotiblar esa guruhi azolarining fikrlarini hisobga olib borishlarini tushuntiriladi.

Keyin har bir guruhgaga xatjildlar tarqatiladi. Ularga “Chumoli va tipratikan” masali yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar

joylashtirilgan bo‘ladi. *Unda quyidagicha savollar va topshiriqlar bo‘lishi mumkin:*

1. Masal mazmunini so‘zlab bering.
2. Masalda ishtirok etuvchilarni ayting.
3. Tipratikan va uning bolalariga qanday baho berasiz?
4. Chumoli tipratikandan nima uchun ruxsat so‘radi?
5. Chumoliga qanday baho berasiz?
6. Tipratikan bolalari chumolining orqasidan nima deb kulishadi?
Ular to‘g‘ri ish qildimi?
7. Masaldagi maqolni yoddan ayting. Maqol mazmunini tushuntirib bering.
8. “Badnafs” so‘zini qanday tushindingiz?
9. Tipratikan nima uchun qo‘rqib-pisib iniga jo‘nadi?
10. Chumoli orqasiga qarab tipratikan va uning bolalariga nima dedi?
11. Masaldagi qaysi timsol sizga yoqdi?
12. Masal mazmuniga mos maqol ayting.

Guruh sardorlari tarqatmalarni tanlab olishi, savol va topshiriqlarga belgilangan muddatda javob berishlari lozim bo‘ladi.

Xatjildga savollar quyidagicha taqsimlanishi ham mumkin:

1-xatjild

1. Masal mazmunini qisqacha so‘zlab bering.
2. Tipratikan bolalari chumoliga qarata nima dedi? Siz chumoliga nisbatan shu so‘zni ishlatarmidingiz? Nima uchun?

2-xatjild

1. Masalda nima haqida gap boradi?
2. “Badnafs” so‘zini qanday tushundingiz? Uning o‘rnida yana qanday so‘zlarni ishlatish mumkin?

3-xatjild

1. Masalda ishtirok etuvchilarni ayting. Hayotda shunday fe’lli odamlar bormi?
2. Masaldagi maqolni yoddan ayting va mazmunini tushuntiring.

4-xatjild

1. Masaldagi qaysi timsol sizga yoqdi? Nima uchun?
2. Maqoldagi “jonsarak”, “sheryurak” so‘zlarining o‘rnida yana qanday so‘zlarni ishlatish mumkin?

5-xatjild.

1. Tipratikan nima uchun qo‘rqib-pisib uyiga jo‘nadi?
2. Chumoliga qanday baho berasiz? Tipratikan va uning bolalarigachi?

6-xatjild

1. Chumoli orqasiga qarab tipratikan va uning bolalariga nima dedi?
2. Masal mazmuniga mos maqol ayting.

Tarqatmalar bo‘yicha har bir guruh a’zolari bir-biri bilan fikr almashadi, hamda bahs-munozara orqali javoblarni tayyorlaydi. Bunda har bir guruhda saylangan kotib guruh qatnashchilari tomonidan aytilgan javoblarni yozib boradi. Sardorlar esa guruh ishini jonlantiradi.

Fikr almashuv va bahs-munozara uchun ajratilgan vaqt o‘z poyiniga yetgandan so‘ng, har bir guruh sardori va guruh a’zolari navbatma-navbat berilgan savollar yuzasidan so‘zga chiqadi. Boshqa guruhlar

tomonidan berilgan qo'shimcha savollarga javob berishadi (guruh a'zolari bilan birgalikda).

Darsni mustahkamlash va yakunlash maqsadida o'qituvchi to'g'rilik, halollik, mehnatsevarlik, kishilarni qo'pol so'zlar bilan ranjitmaslik lozimligi haqida fikrlarini ta'kidlash bilan mavzuni mustahkamlaydi va darsga yakun yasaydi.

Har bir guruh a'zolarining savollarga bergen javoblari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi muhokama qilinadi, lozim bo'lsa, o'quvchilar fikri o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi. Har bir o'quvchi dars jarayonida qatnashish darajasiga qarab baholanadi. G'olib guruh a'zolari taqdirlanadi.

Uyga vazifa sifatida masaldagi maqolni yod olish, "halol", "sheryurak", "jonsarak", "badnafs" so'zlarini daftariga yozish, imlosini o'rganib kelish topshirilishi mumkin.

O'quvchilar bilan yuqoridagi usullar bilan dars o'tish orqali ularning so'z boyligini oshirishga, mustaqil fikrlashga, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga yordam beradi.

UMUMIY XULOSALAR

– Nutq faoliyati insonning kundalik turmushi va turli sohalardagi faoliyati davomida vujudga keladigan, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishni ta'minlovchi muhim jarayondir. Nutq faoliyatlarining bajarilishi ikkiga: og'zaki nutqqa, yozma nutqqa bo'linadi

– Badiiy matnlarni tahlil qilish usuli orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi.

– Boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishslashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

– Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan barcha mashg'ulotlarda bolalar nutqini o'stirish, tovush talaffuzining to'g'ri bo'lishi va ularning lug'at boyligini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi.

– O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni badiiy asarni mutazam mutolaa qilib borish istagini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda badiiy asarni mustaqil mutolaa qilishni shakllantirish badiiy asardagi jozibali tomonlarni ko'ra olish, tushunish va his etishga bog'liqdir.

– Boshlang‘ich sinflarning o‘qish savodxonligi darslarida ko‘plab hikoya matnlari ustida ish olib boriladi. O‘qish ishlari davomida o‘quvchilarning ongли o‘qish malakalarini ochib borishga katta e’tibor berishi lozim. Agar o‘quvchi matnlarni ongли o‘qiy olsa unga ongли mustaqil o‘qish uchun topshirilgan matnlarni u qiziqib o‘qiydi, ularni g‘oyasini yaxshi o‘zlashtira oladi.

– Har bir asar bolalarda jamyatimiz uchun zarur bo‘lgan sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun asar tanlaganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g‘oyaviy-mantiqiy yo‘nalishga ega bo‘lish jo‘shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazliligi, voqlalarning ketma-ketligi, mazmunining qiziqarliligi, shu bilan bir qatorda badiiy asarning hajmi va uning bola yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : “O‘zbekiston”, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari “Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta’lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va unga qo‘yiladigan talablar”. – Toshkent, 2017
3. A.G‘ulomov, B.Qobilov. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.
4. K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent, 2009.
5. Osipova G. Bilganimiz bilmaganimizdan ko‘p . Boshlang‘ich ta’lim. –Toshkent, 2006. - № 6.
6. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o‘qish darslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
7. Shojalilov A., Yusupov M. va boshqalar. To‘rtinchi sinfda o‘qish darslari. - Toshkent, 2017.
8. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2009.
9. Q.Shodieva. Nutq o‘stirish uslubiyati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002.
10. M.E.Tirova, O‘qish savodxonligi 3-sinf (I qism) Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. – Toshkent, 2023

11. T. G'afforova. Boshlang'ich ta'limdi zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Tafakkur, 2011.
12. Shodieva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. –Toshkent: "O'qituvchi", 2002.
13. Babayeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi (O'quv qo'llanma). T.: «Fan va texnologiya», 2009
14. www.kitobxon.uz
15. www.ziyonet.uz
16. www.ziyouz.com.uz O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent , 2009.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYA MATNI USTIDA
ISHLASHDA O'QUVCHILAR NUTQINI
O'STIRISH USULLARI**

MONOGRAFIYA

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	G. Samigova

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 10,5. Adadi
100 dona. Buyurtma № 2198

Zebo prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
22-harbiy shaharcha
Tel.raqam: +998 94 673 66 56
+998 97 017 01 01

QAYDLAR UCHUN

